

YOZUVCHI MUHAMMAD SHARIF HIKOYALARIDA RAMZIY OBRAZ VA DETALLAR, FOLKLOR AN'ANALARI TAHLILI

Laylo HAYITOVA

tayanch doktorant

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

laylohayitova91@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada yozuvchi Muhammad Sharif hikoyalarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, badiiy psixologizmning asardagi funksiyalari haqida so'z boradi. Asosan, "Xirgoyi", "Oqko'ngil kishi", "Hadik", "Somon yo'li", "Parvoz" hikoyalari tahlilga tortiladi, ramziy obraz va detallar orqali, shuningdek, folklor an'analari bilan qahramon ruhiyatini, kayfiyatini ifodalab berish mahorati to'g'risida fikr yuritiladi.

Tayanch so'zlar: hikoya, ruhiyat, ramziy obraz, san'at, kompozitsiya, hikoya, badiiy psixologizm, syujet, borliq, tasvir, badiiy g'oya.

АНАЛИЗ СИМВОЛИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ И ДЕТАЛЕЙ, ФОЛЬКЛОРНЫХ ТРАДИЦИЙ В РАССКАЗАХ ПИСАТЕЛЯ МУХАММАДА ШАРИФА

Лайло ХАИТОВА

базовый докторант

университет узбекского языка и литературы

имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

laylohayitova91@gmail.com

Аннотация

В статье речь идет об идейно-художественных особенностях рассказов писателя Мухаммада Шарифа, функциях художественной психологии в произведении. В основном анализируются рассказы «Хиргойи», «Аккунгил киши», «Хадик», «Самон Ёли», «Полет», выражающие психику и настроение героя через символические образы и детали, а также фольклорные традиции.

Ключевые слова: рассказ, психика, символический образ, искусство, композиция, нарратив, художественная психология, сюжет, сущность, образ, художественная идея.

Muhammad Sharif hikoyalari kitobxon qalbini rom etadigan, mayin bir musiqa tinglaganday o'qiladigan hikoyalar. Bu asarlarda o'ziga xos milliy ohanglar vositasida hosil qilingan beg'uborlik bor. Mutolaa mobaynida beixtiyor g'alati bir entikish, sog'inch hislari o'rmalay boshlaydi yurakda. Bu bolalik, beg'uborlik, ilk muhabbat, ilk ayriliq, armon-u iztiroblarning shirin ta'mini

tuydiradigan ijod. Bular buyuk bir rassomning soʻz vositasida chizgan goʻzal kartinalaridir.

Muhammad Sharif qalamiga mansub hikoyalardan eng birinchi oʻqiganim – “Tolkoʻprik” mutolaasida “Buncha goʻzal va mukammal peyzaj namunasi bor bu hikoyada, xuddi rassomday ijod qilgan yozuvchi!” degan fikr oʻtdi xayolimdan. Adib biografiyasi bilan tanishish chogʻida amin boʻldimki, bu serqirra isteʼdod sohibi nafaqat betakror nosir, balki yetuk rassom ham ekan.

Muhammad Sharif hikoyalari orasida katta ijtimoiy dardlar ramzlashtirib berilganligi bilan oʻziga xoslik kasb etadigan “Xirgoyi” hikoyasi ajralib turadi. Asar syujeti –original. Bosh qahramon – Elchibek toʻsatdan ogʻir dardga yoʻliqadi. Ich-ichidan gʻalati bir xirgoyi kelaveradi, uni bosishga Elchibekning kuchi yetmaydi. U bu darddan xalos boʻlish uchun astoydil kurashadi. Oʻzini oilaviy-maishiy muammolar bilan, dehqonchilik ishlari bilan har qancha band qilmasin, bu ilohiy qutqudan qutulishning imkoni yoʻq edi. Koʻp dardmandlarni dardidan xalos etgan tabib chol ham bunga qudrati yetmasligini tan oladi. Oxir-oqibat bu dard Elchibekni halok etadi, toʻgʻrirogʻi, uning xirgoyisi qulogʻiga yoqmagan nokas kimsalar Elchibekni mahv etishga erishadi. Zero, haqiqat va adolat ovozi hech bir diyonatsiz, johil kimsaga yoqmasligi tabiiy. Hikoyaning asosiy badiiy gʻoyasi ramziy detal – xirgoyi orqali yoritiladi. Bu ramziy detal – haqiqat, haq ovozi, bizningcha. Voqealar ayrim oʻrinlarda bolakay – tabib cholning nevarasi tilidan, baʼzida roviy tomonidan hikoya qilinadi. Elchibekni otib oʻldirgan obraz – ovchi Shermat obazi. U hayotdan biror maqsadi yoʻq, shunchaki hamisha qandaydir jonivorning – xoh hayvon, xoh inson boʻlsin, jonini olishni sevadigan johil kimsa edi. Qishloqda Elchibekni kasali hammaga yuqishi mumkinligi, bu xavfli epidemiyaga aylanishi mumkinligi (tarixdan ayonki, qalbi uygʻoqlar hamisha oddiy xalqni qoʻzgʻatishga, haqiqatga tik boqishga undagan) haqida gap tarqalgach, Shermat koʻngilli tarzda uni izlashga tushib ketadi. Azaldan shunday. El orasidan adolat istab chiqqan xalq qahramonlari shunday mahv etiladi, ovozi oʻchiriladi. Hikoyani mutolaa qilish mobaynida negadir jadid bobolarimiz haqida oʻqigan-bilganlarim bir-bir koʻz oldimdan oʻtaverdi. Kitobxon hikoyani oʻqib,

Vatan ozodligi uchun, bugungi tinch va farovon kunlarga erishish uchun otabobolarimiz qancha qurbonliklar berganini ich-ichidan his qiladi. Chunki bu “xirgoyi” bilan yashash degani oiladan, o‘z xotirjamligi-yu rohatidan ayrilish degani. Bu yo‘lning mashaqqati-yu lazzatini Shermatga o‘xshaganlar hech qachon anglamaydi.

Elchibek chalingan davosiz dardning sababi hikoya so‘ngida ma’lum bo‘ladi: “Elchibek qachonlardir o‘zi ustunga ilib ketgan, yozi bilan quyoshda kuyib, titilib ketayozgan paxtali choponiga yuzini bosdi, to‘yib-to‘yib hidladi, balki yig‘lagandir ham, lekin yuzidagi yomg‘ir tomchilarimi yoki ko‘z yoshlarimi, bilib bo‘lmadi” [4;117]. Parchada qahramon qalbidagi vatanga, oilaga ulkan muhabbatning, hayotga to‘ymagan, yurak-bag‘ri o‘rtanib intilsa-da, adolat ovozi eshitilmagan armonli qalbning tabiiy tasviri bor.

Hikoya yakunida dunyoda qancha Shermatlar bo‘lmasin, haqiqat ovozi butunlay bo‘g‘ilmasligi, xalq orasidan Elchibeklar qayta-qayta yetishib chiqaverishiga nozik ishora bor: “Biroz kutib xavotirga tushgan chol tandirxonaga kirdi-da, nevarasini olovga termulgancha qandaydir sokin, lekin og‘ir bir kuyni xirgoyi qilayotganini ko‘rdi. Asta kelib dag‘al, lekin iliq taftli kafti bilan bolaning boshini, peshanasini siladi, kaftini siladi, kaftini yuzidan sirg‘altirib tushirdi-da, barmoqlarini ombursimon qilib, nevarasining lablarini “jim!” degandek qilib qattiq qimtib qo‘ydi [4;118]. Yakunda kitobxon qalbi yana bir qalqib tushadi. Bu yuqoridagi parchada keltirilgan “jim!” so‘zi tufayli. Afsuski, xalqimiz necha yillar mobaynida o‘z mardlari, xaloskorlarini jim turishga da’vat etib keldi.

“Xirgoyi” hikoyasining o‘ziga xosliklaridan yana biri folklor unsurlari mavjudligi. Shermat bilan Hakim hisobchi o‘rtasidagi nizo voqeasida yozuvchi ajoyib payrov qiladi. Voqea Shermatning qishloqdoshi Mahmudboy uyidagi sabziqirdiga borgan kuni bo‘lib o‘tadi. Shermat –ovchi. To‘y egasining laqabi –tulki. Hakim bu o‘rinda Shermat qo‘lidagi pichoqqa ishora qilib, tulki ovlashga keldingmi, deb hazillashadi. Tabiatan farosati qisqaroq Shermat bu so‘z o‘yinini anglamaydi, munosib javob qaytarolmaydi va tabib cholga borib shikoyat qiladi. Tabib javobidan payrov mazmuni ochiqatlanadi: “O‘rningda boshqa odam

bo‘lganida Hakimga qarab “Bir gazanda tulkilarning qonini so‘rib, terisini ustixoniga yopishtirib qo‘yibdi, pichog‘im suyagiga qadalib sindi, boshqasini olib kelaverdim“, degan bo‘lardi” [4;108]. Cholning bunday javob berishiga sabab Hakim hisobchining laqabi kana ekanligidir. Bu parcha Muhammad Sharifning xalq og‘zaki ijodini puxta bilishi va folklorning ajoyib xususiyatlaridan o‘z asarlarida ustalik bilan foydalana olishidan darak beradi. Askiyachilarda laqabga qarab gap yo‘nalishini olib borish urf bo‘lgan. So‘s ustasi Mamasiddiq Shirayevning laqabi ot bo‘lgan, sherigi Hotamboyning laqabi esa – it. Aytaylik uni mot qilish uchun uvillash yoki otni eshakka mengzash, har bir gap payrovini shunga taqayverish yetarli. Vaziyatdan chiqib ketolmasa mot bo‘ladi. Muhammad Sharif askiyaning mohiyatini qisqa, ammo yaxshi ifodalay olgan. Bu tabibning diniy ilm peshvosi bo‘lish bilan birga bunday qochirimlarni yaxshi fahmlaydigan, demakki, el-ulusni ichdan biladigan dono odam ekanligini dalillaydigan lavha.

Muhammad Sharifning inson ruhiyati juda pishiq tasvirlangan asarlaridan yana biri – “Oqko‘ngil kishi” hikoyasidir. Voqealar hikoya qahramonlaridan biri – yosh, qaysar tahririyat xodimi tilidan bayon etiladi. Hikoya yakuniga qadar juda yuvosh, yaxshi inson bo‘lib ko‘ringan obrazning o‘z tilidan aytayotgan dahshatli haqiqatlari o‘quvchini bir zumga shoshirib qo‘yadi. Nahotki hamisha kulib turadigan shu inson shunday tubanliklarga qodir bo‘lsa? Tangri yuzsizlarga ham yuz bergan. Afsuski, Sobiq Ittifoq davrida vatandoshlarimizni sotgan xoinlarning aksariyati shunday “oqko‘ngil” manqurtlar edi. Eng yomoni, ular bu ishida o‘zini haq deb bilishi. Chunki bu topshiriq “kattakon”lar tarafidan berilgan. Xudobexabar bu bandalar amaldorlarni taniydi-yu kattalarning eng kattasi –Allohni tanimaydi. Xodim tilidan “vazmin, beg‘ubor boladek nigohi yumshoq bu odam” ning dastidan “paxta ishi” degan ofat bahonasida qanchadan-qancha insonlarning yostig‘i quridi. Quyidagi parchada bu oqko‘ngil jallodga eng xolis ta‘tif beriladi: “Bu insonning dunyoga qarashi mashina motori yanglig‘ edi go‘yo, atrofida har qancha o‘zgarish, dunyoni larzaga solayotgan yangiliklar, evrilishlar yuz bermasin, bularning bari unga zarracha ta’sir etmagandek, unnga aloqasi yo‘qdek, bir maromda guvillab, bexato ishlayveradigan motor edi” [4;129].

Hikoyaning dialog qismi bosh muharrir o‘rinbosari (oqko‘ngil kishi) va yosh xodim suhbatidan iborat. Suhbat so‘ngida xodim bu katta yoshli kishiga intervyu uyushtirishni va uning nomini “Oqko‘ngil jallodning samimiy iqrori” deb qo‘yishni taklif qiladi. Yozuvchi xodim tilidan bosh qahramonga eng to‘g‘ri va tugal ta‘rifni beradi. Asarda inson ko‘rinishi hamisha ham uning ichki dunyosiga uyg‘un bo‘lmasligi haqidagi azaliy haqiqat o‘z tasdig‘ini topadi. Adabiyotshunoslik ilmida ham qahramon portreti hamisha uning xarakteriga mos kelavermasligi, ba’zida salbiy qahramon ko‘rinishi juda go‘zal holatda bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Muhammad Sharif hikoyalari an’anaviy til va uslubda yozilishiga qaramay o‘quvchini beixtiyor o‘ziga tortadi. “Hadik” hikoyasida lahzalik fursatni anchayin keng tasvirlab beradi. Garchi hikoya boshidan oxirigacha faqat bosh qahramon o‘y-xayollaridan iborat bo‘lsa-da, kitobxon “Oxiri nima bilan tugarkan?” degan o‘yda bir lahza ham diqqati susaymasdan o‘qiydi. Tabiiyki, bir davrda yashab ijod qilgan yozuvchilar ijodida mushtarak jihatlar uchraydi. “Hadik” bilan Ahmad A’zamning “Nima qilib qo‘ygan ekanman?” novellasi mazmunan va ruhan yaqin. Uning novellasida ham qahramon atrofida bo‘layotgan o‘zgarishlar, chunonchi hamkasblari munosabatidagi o‘zgachalik sababi asar oxirigacha sir bo‘lib qoladi va bu o‘quvchi qiziqishini orttiradi.

Badiiy asar inson kechinmalarini tasvirlagani bilan go‘zal. Inson esa jamiyatdan ayro yasholmaydi. Garchi adabiy asarda ijtimoiylik birinchi planga qo‘yilmasa-da, undan butunlay xoli ham bo‘lolmaydi. Bu haqida Nazar Eshonqul shunday yozadi:

“San’at asarlaridan ijtimoiy ma’no izlash adabiyotni jo‘nlashtiradi, biroq san’at ijtimoiy ma’nosiz shunchaki bejirim libosga o‘xshab qoladi. San’atda ijtimoiy ma’no tirik yurak, og‘riyotgan, iztirob chekayotgan yurakning tovushi, urib turishi bilan bog‘liq. Agar qalam shu og‘riyotgan yurakka botirib yozilmasa, iztirobli qalb sezilmasa, san’atning qudrati ko‘rinmaydi” [5;330]. Muhammad Sharif hikoyalarida ana shu qudrat go‘zal bir badiiy qiyofada bo‘y ko‘rsatadi. Yozuvchi katta-katta ijtimoiy dardlarni ham quyuq badiiy bo‘yoqlarda chizadiki,

bu hikoyalar adabiyotning har ikki qirrasini – inson his-tuygʻulari va ijtimoiy muammolarni kuylash jihatidan ham bebahodir.

Inson tabiati qiziq va ayni paytda juda murakkab. Ruhiyat evrilishlarini tasvirlashning turli-tuman usul va yoʻllari bor. Muhammad Sharif bu jihatdan oʻz yoʻliga ega. Uning bir qadar sodda koʻringan hikoyalarida ham inson tabiati va ruhiyati teran tasvirlanadiki, bu yozuvchi mahoratini bildiradi. Adibning “Somon yoʻli” turkum hikoyalari shu jihati bilan ajralib turadi. Qishloqdoshlar yigʻilib ulfatchilik qilayotgan oʻrni (“Somon yoʻli”ning toʻrtinchi hikoyasi)da shunday tasvir bor: “Poliz yoki bogʻidan koʻzlangan daromadni ololmagan kishilar tasalli uchun oʻzlaridan koʻra koʻproq zarar koʻrganlar haqidagi hangomalarga har doim oʻch boʻlgan” [4;100]. Bunda muallif qahramon ruhiyatini oʻzi toʻla ochib beradi. Inson tabiatida hamisha oʻzini oʻzgalarga taqqoslash, tenglar ichra teng boʻlish hissi mavjud. Bu his baʼzan havas boʻlib insonni ulugʻ va xayrli ishlarga boshlasa, baʼzan hasadga aylanib oʻz egasini tubanlashtiradi. Odatda hayotda omadi chopmagan, oʻziga ishonchi va bahosi past insonlarda shu his ikkinchi koʻrinishda namoyon boʻladi. Demak, yuqoridagi parcha hayotiy holatning tabiiy tasviridir.

Xalq qoʻshiqlarida shunday misra bor: “Arslonni itga yalintirgan ehtiyojdir, ehtiyoj”. Darhaqiqat, ehtiyoj insonni oʻzi istamagan koʻp narsalarga majbur qiladigan qudratga ega. “Somon yoʻli” turkumining toʻrtinchi hikoyasidagi quyidagi parchada ham ehtiyoj nazarda tutilgan boʻlsa ajabmas: “Haqiqatan, yerning tortish kuchini yengib, cheksiz osmonga, somon yoʻli qadar chiqib ketish uchun raketaga bemisli qudrat kerak. Odamga-chi!? Issiq toʻshak, qaynoq quchoq, qadrdon goʻshaning tortish kuchini yengib, begona va sovuq yurtlarga oylab yoki yillab chiqib ketish uchun qanchalik kuch kerak, bu kuch qayerdan keladi, qayerdan olinadi?” [4;104]. Shu satrlar bilan hikoya nomi nima uchun “Somon yoʻli” deb nomlangani oydinlashadi.

Bosh qahramon ruhiyati yumor orqali ochilgan hikoya – “Parvoz”da ham badiiy psixologizmning yetuk namunasini koʻramiz. Butun umr uchishni orzu qilgan sodda qahramon – Bozorov Adhamning oʻz orzusi yoʻlida astoydil intilishlari va sud zalida oʻz xatti-harakatlarini juda samimiy izohlashi kitobxon

zavqini oshiradi. Bosh qahramon o'zi bilmay jinoyatga qo'l urgan, ya'ni tutqatorlarga dori sepish uchun yuborilgan kichik uchish mashinasi – “Deltamotor” bilan qishloq bo'ylab parvoz qilgan. Bozorov suddagi nutqida o'zining mexanik ekanligi va texnikani jon-dili bilan sevishini ta'kidlaydi. Ammo uning “jinoyat”iga sabab bo'lgan asosiy omil hikoya yakunida ayon bo'ladi. Aslida bu sabab suddayam tilga olib o'tiladi, faqat guvoh qandaydir andisha bilan uni ochiqalay olmaydi, ammo voqeaning asosiy sababchisi ayol kishi ekanligi va bu ayol Bozorovning sinfdoshi, ilk muhabbati ekanligi matndan anglashiladi. Hikoya so'ngida ana shu ayol Bozorovni garov evaziga ozodlikka chiqarishga yetarli summani sud binosi oldiga keltirib berib ketadi. Bosh qahramon – juda sodda, ochiqko'ngil shaxs. U azbaroyi ishtiyoq kuchidan, uchish istagi kuchliligidan xatoga yo'l qo'yadi. Odam bolasining kurashga to'ymasligi, nafsoniyati og'rigan banda butun umr bu og'riqni unutmasligi hikoyaning bosh konsepsiyasini tashkil qiladi. Bozorov bolaligida uchgan. Dori sepadigan raketaga osilib tasodifan uchgan. Ammo uning uchishi haqidagi gaplariga ko'pchilik, asosiysi, o'sha ko'pchilik orasida Adham uchun ahamiyatli bitta qiz ishonmagan. Qahramonimiz esa qachon bo'lmasin, qishloq ustidan yana uchib o'taman deb ont ichgan. Bu beg'ubor obraz orqali inson tabiatining eng muhim qirralaridan biri ochiladi. “Odam bolasi yiqilib, yiqilganiga rozi bo'lib ketaverish uchun dunyoga kelgan emas” degan mashhur hikmatli so'zning badiiy ifodasi bor bu asarda. “Parvoz”dagi yumorni kuchaytirgan yana bir qahramon jabrlanuvchi chol obrazidir. Uning nutqi ham Bozorovniki kabi juda samimiy va jaydari. Sud zalida voqeani shunday bayon qiladi Mahkam chol: “O'rikning tagiga o'tib, qaynoq suvda bir amallab hah-hahlab tahorat olib, endi ayvonga qarab yurganimni bilaman, qistaloq, bir payt osmoni palakdan bir narsa tarillab keldi-yu hovliga qarsillab tushdi. Yana nemis bosdi-yov, qoch-a Mahkam, deb bir irg'ib o'zimni ayvonga urdim... Tahoratom sindi-da shu joyda...” [4;47]. Chol nutqidan keyin zalda gur etib kulgu ko'tariladi. Muhammad Sharifning bu hikoyasida milliy ohanglar barcha asarlaridagidan ko'ra bo'rtibroq ko'rinadi. Chunki Bozorov ham, Mahkam chol ham o'zbekona soddalik, samimiylik, ammo tanti va mard tabiatlilik bilan sug'orilgan obrazlar. Mahkam

chol Bozorovning xatosi bilan ancha yo‘qotishga uchraydi – nevarasining to‘yiga atab boqilayotgan ho‘kizini ertaroq so‘yib sotishga majbur bo‘ladi. Ammo Adhamning sharoiti, to‘rtta farzandi bilan arang oila tebratayotganini hisobga olib, unga hech qanaqa da’vo qilmaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Muhammad Sharif hikoyalarida ramziy obraz va detallar, yumor, badiiy muloqot, peyzaj kabi bir necha vositalar yordamida qahramon ruhiyatini yorqin ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboxonov M. Hozirgi o‘zbek romanlari strukturasi badiiy psixologizm muammosi: fil.fan.fals.dokt. avtoreferat. – SamDU, 2023.
2. Tulabayeva R. Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida badiiy psixologizm: fil.fan.fals.dokt. dissertatsiya. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2019.
3. Умиров Х. Ўзбек романида психологизм принципи, шакллари ва воситалари. Ўзбек адабий танқиди. – Тошкент: Турон-иқбол. 2011.
4. Sharif , Muhammad. Tolko‘prik. – Toshkent: Sharq, 2016
5. Eshonqul, Nazar. Kitob bandasi. – Toshkent: Akademnashr, 2022.
6. Qo‘chqor, Rahmon. Tolko‘prikdan inson qalbi sari. <https://kh-davron.uz>
7. Қучқорова М. Бадий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Мухаррир, 2011.
8. Қуронов Д., З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013.